

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**




# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI**

**2023- yil NOYABR**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI)


## NOYABR OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan




**Iste‘mol narxlari indeksi (INI)** iste‘mol sektori-dagi inflyatsion jarayonlar-ning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning noyabriga nisbatan




2023- yilning noyabrida oylik yig‘ma INI **101,1 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan **107,4 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning noyabriga nisbatan) yig‘ma INI **108,8 %** darajasida shakllandi.

INI o‘rtacha oylik o‘sish sur‘ati 2023- yilning yanvar-noyabrida **0,7 %** ga yetdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichdan 0,2 foiz bandga va 2021- yilning yanvar-noyabridagiga nisbatan 0,1 foiz bandga past bo‘ldi.

# AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI

2023- yilning oktabr oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>1</sup>



2023- yilning oktabr oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>2</sup>



■ o‘tgan oyga nisbatan    ■ 2022- yilning dekabriga nisbatan    ■ 2022- yilning oktabriga nisbatan

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIning shakllantirishiga “Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e‘lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste‘mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

<sup>1</sup>) [https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC\\_HICP\\_MANR\\_\\_custom\\_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb](https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb)


<sup>2</sup>) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida.

## TOVARLAR




2023- yil noyabrda tovarlar bo'yicha INI oy davomida **101,0 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich **107,5 %** ga yetdi. Yillik nisbatda tovarlar bo'yicha INI **108,9 %** darajasida shakllandi.


### o'tgan oyga nisbatan



### o'tgan yilning dekabriga nisbatan



### o'tgan yilning noyabriga nisbatan




## KIZMATLAR




2023- yilning noyabr oyida xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI **101,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan INI **107,1 %** ga, 2022- yilning noyabriga nisbatan **108,3 %** ga yetdi.


### o'tgan oyga nisbatan



### o'tgan yilning dekabriga nisbatan



### o'tgan yilning noyabriga nisbatan



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

JAMI **510**



turdagi tovarlar

Oziq-ovqat mahsulotlari



turdagi tovarlar


Nooziq-ovqat mahsulotlar




turdagi xizmatlar

Xizmatlar


## noyabr oyida o'tgan oyga nisbatan



## noyabr oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



## noyabr oyida o'tgan yilning noyabriga nisbatan



Joriy yil noyabrda oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qisqa muddatli INI **101,3 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,7 %** ni va xizmatlarda **101,5 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning dekabriga nisbatan INI oziq-ovqat mahsulotlarida **108,3 %**, nooziq-ovqatlarda **106,6 %**, xizmatlarda **107,1 %** darajasida qayd etildi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarda **110,1 %** va **107,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, xizmatlarda **108,3 %** ga yetdi.



Iste'mol narxlarining o'zgarishi kuzatuvlari doirasida har oyda 10 mingdan ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, 120 mingdan ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

noyabr



## YIG'MA INI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning noyabriga nisbatan




Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarini o'zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning noyabridagi qisqa muddatli INI **100,8 %** (ularni hisobga olganda **101,1%**) ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko'rsatkich **107,3 %**, 2022- yilning noyabriga nisbatan esa **108,3 %** darajasida qayd etildi.

# ASOSIY GURUHLARDA NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

noyabr oyida o'tgan oyga nisbatan




## Umumiy ta'sir darajasidagi ulushi, % da


### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar



### Xizmatlar



Oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlarining kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar 2023- yil noyabridagi qisqa muddatli yig'ma INI o'sish sur'atiga umumiy ta'siridagi hissi **46,9 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlar hissi **21,2 %** ga va xizmatlar hissi **31,9 %** ga to'g'ri keldi.

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) salmoq vaznlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladigan **aholining iste'mol xarajatlari tarkibi** (uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari) to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida **iste'mol narxlari** (ya'ni, tovarlar va xizmatlarning aholi tomonidan sotib olinadigan narxi) o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.



\*) foiz darajasi

# ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI



Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

noyabr oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



noyabr oyida o'tgan yilning noyabriga nisbatan



oziq-ovqat mahsulotlari

nooziq-ovqat mahsulotlar

xizmatlar







Hisob-kitoblarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarning 2022- yil dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'sirining **47,1 %** i to'g'ri keldi (bir yil avval ushbu ko'rsatkich **53,2 %** ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo'ldi va uning ulushi **22,1%** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'ati oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi bilan bog'liq (umumiy ta'sirdagi ulushi **48,9 %**, oktabr oyida **51,4 %**).

# MAQSADLAR BO‘YICHA INDIVIDUAL ISTE‘MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O‘zR MIIT – 2018) BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a‘zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste‘mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.





noyabr oyida o‘tgan oyga nisbatan\*



\* Statistika maqsadlarida 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

noyabr oyida o‘tgan oyga nisbatan

*Davomi*




2023- yilning noyabrda bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INI diapazoni **100,2 %** dan (“Ta’lim sohasidagi xizmatlar” VIII bo‘lim) **102,6 %** gacha (“Transport” VII bo‘lim va “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” XI bo‘lim) oraliqda joylashdi.


noyabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



## Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar



## Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari




I


II



## Kiyim va poyabzal



## Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari




III

IV




## Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish



95 101 107 113



## Sog‘liqni saqlash




V


VI



## Transport



## Axborot va aloqa




VII

VIII

noyabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Dam olish, sport va madaniyat



IX




## Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



X




## Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XI




## Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XII



## Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



XIII

### IZOH: O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi

2021- yildan INIning hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.


“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) va “Transport” (VII) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yilning yanvar-noyabridagi INI o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

O‘tgan yilning dekabriga nisbatan 100,0 % lik chegaradan past INI “Axborot va aloqa” (VIII) bo‘limida qayd etildi.


# O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

## noyabr oyida o'tgan yilning noyabriga nisbatan


### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar




### Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




### Kiyimlar va poyabzal




### Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari




### Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




### Sog'liqni saqlash




### Transport




### Axborot va aloqa




### Dam olish, sport va madaniyat




### Ta'lim sohasidagi xizmatlar




### Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



### Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar



### Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar




2023- yilning noyabr oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarda (**99,4** %) kuzatilgan bo'lsa, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo'yicha INI **122,6** % darajasida qayd etildi.

**IZOH:** O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIning hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan. 2020- yilning noyabridagi 2019- yilning noyabriga nisbatan INI narxlarni taqqoslash uchun bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli hisoblanmagan.


# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % da

noyabr oyida o‘tgan oyga nisbatan

## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



## Go’sht va go’sht mahsulotlari



2023- yilning noyabrida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi guruhlarida kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,4 %** dan **109,1 %** gacha chegarada joylashdi.


100,0 % lik darajadan past qisqa muddatli INI oy davomida “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**99,8 %**), “Yog‘lar va moylar” (**99,4 %**) guruhlarida qayd etildi.

Joriy yilning noyabrida “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida kuz-qish mavsumi uchun odatiy bo‘lgan narx o‘shishi kuzatildi. Ushbu guruhda 2023- yilning noyabrida qisqa muddatli INI **109,1 %** ga yetdi (bir oy avval **106,5 %**).

Shunga o‘xshash holat sut mahsulotlari va tuxum narxlarida ham kuzatilib, oylik INI **101,2 %** ni tashkil etdi.

Bo‘limning boshqa guruhlaridagi oylik INI sezilarli darajada past bo‘ldi va **101,1 %** dan oshmadi.


## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




## Yog‘lar va moylar




## Mevalar va yong‘oqlar




## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar



## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



## Spirtsiz ichimliklar




# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % da


noyabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




## Go‘sh t mahsulotlari



## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



## Yog‘lar va moylar



## Mevalar va yong‘oqlar



## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



## Spirtsiz ichimliklar




Yog‘-moy va sabzavot mahsulotlari narxlarining joriy yil noyabrdagi o‘rtacha darajalari 2022- yil dekabrda gi darajadan pastli gicha saqlanib qoldi. 2023- yil noyabrda “Yog‘lar va moylar” guruhida INI **91,0** % ni, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhida esa **91,9** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabridagi ga qaraganda donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**109,5** % ga **130,0** %), hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**108,8** % ga **124,3** %) INI ko‘rsatkichi sezilarli darajada past bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda, mevalar va yong‘oqlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-noyabridagi INI ko‘rsatkichi o‘tgan yillarga qaraganda baland bo‘ldi.


# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % da

noyabr oyida o‘tgan yilning noyabriga nisbatan


## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



## Go’sht mahsulotlari




## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




## Yog‘lar va moylar



## Mevalar va yong‘oqlar




## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



## Spirtsiz ichimliklar




2023- yilning noyabrida “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**110,7 %** ga **131,8 %**), “Yog‘lar va moylar” (**90,6 %** ga **111,9 %**), “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**98,9 %** ga **113,3 %**) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**109,1 %** ga **126,3 %**) guruhlarida yillik nisbatdagi INI o‘tgan yilning noyabridagi mos ko‘rsatkichdan sezilarli darajada past bo‘ldi.

I bo‘lim guruhlarida orasida “Yog‘lar va moylar” va “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhi-dagi o‘rtacha narxlar darajasi o‘tgan yilning noyabridagi darajadan pastligicha saqlanib qoldi.




# 2023- YILNING NOYABRIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

## Guruch va guruch oqshog'i




## Bug'doy uni



## Mol go'shti (suyakli)




## Qo'y go'shti




## Sut (yangi sog'ilgan)



## Tuxum



## Kungaboqar yog'i



## Shakar




2023- yilning oktabriga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan


2022- yilning noyabriga nisbatan

# 2023- YILNING NOYABRIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % da


## o'tgan oyga nisbatan



## o'tgan yilning dekabriga nisbatan



## o'tgan yilning noyabriga nisbatan



Joriy yilning noyabrida sabzi, karam, limon, piyoz, kartoshka kabi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, bodring, pomidor, anor va boshqa shu kabi mevalar va sabzavotlar narxlari sezilarli qimmatlashdi.


Baqlajon va bulg'or qalampiri joriy yil boshidan va o'tgan yilning noyabriga nisbatan narxlar pasayishi bo'yicha yetakchilikni ushlab qoldi. Anor narxlarida aksincha, joriy yil boshidan va 2022- yilning noyabriga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi.



# 2023- YIL NOYABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLER ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da


## o'tgan oyga nisbatan

Yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'siri  
**+0,47 f.d.**



## 2022- yilning dekabriga nisbatan


Yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'siri  
**+3,10 f.d.**



# 2023- YIL NOYABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da

2022- yilning noyabriga nisbatan

Yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'siri  
**+3,82 f.d.**



Joriy yilning noyabr oyida sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar, yog'lar va moylar narxlarining pasayishi qisqa muddatli INIning tutib turuvchi omil bo'ldi (jami ta'siri **-0,02 f.d.**). Mevalar va yong'oqlar narxlarining mavsumiy o'sishi yig'ma ko'rsatkichga **+0,33 f.d.** ta'sir etdi.

2023- yilning yanvar-noyabrda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar hamda yog'lar va moylar (**-0,61 f.d.**) guruhlarida narxlarning pasayishi INIga asosiy pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi. O'sish sur'atiga yuqori ta'sir ko'rsatgan guruhlar orasida mevalar va yong'oqlar, go'sht, donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**+2,77 f.d.**) guruhlarini alohida ko'rsatish mumkin.

Yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'atiga mevalar va yong'oqlar, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, go'sht mahsulotlari (**+2,98 f.d.**) narx o'zgarishlari yuqori ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, pasayishiga yog'lar va moylar (**-0,27 f.d.**) guruhi ta'sir ko'rsatdi.

# “SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % da


noyabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan\*

## SPIRTLII ICHIMLIKLAR



## TAMAKI MAHSULOTLARI



## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da



Joriy yilning noyabr oyida “Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,4 %** dan (konyak) **101,5 %** gacha (boshqa tamaki mahsulotlari) chegarada joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari INI **107,4 %** dan (vino) **111,4 %** gacha (sigaret) diapazonda joylashdi.

\* shu yerda va keyingi o‘rinlarda 2020- yilning noyabri uchun guruhlar bo‘yicha yillik indekslar taqqoslash uchun bazaning mavjud bo‘lmaganligi sababli shakllantirilmagan.

# “KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % da


noyabr

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

## KIYIMLAR



## POYABZAL




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da

2023- yilning oktabriga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan

2022- yilning noyabriga nisbatan



Joriy yilning noyabrida “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **99,8 %** dan (bolalar uchun krossovkalar) **102,9 %** gacha (kimyoviy tozalash) atrofida joylashdi. Narxlarning tebranishi bir qator omillar orasida alohida turdagi kiyimlar va poyabzallarga mavsumiy talabning o‘zgarishi hamda ayrim turdagi xizmatlar (masalan, kimyoviy tozalash xizmatlari va b.) iste‘molining ortishi bilan izohlanadi.

# “TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI \*



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

\*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

\*) kuzatuv 2021- yildan boshlangan.

Joriy yilning noyabrida mahalliy hokimiyat organining qarori bilan Samarqand, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida sovuq suv yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari tariflari oshirildi. Mazkur hududning ushbu xizmat iste‘moli bo‘yicha aholi jami xarajatlaridagi ulushini hisobga olgan holda, sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlarining INI oy davomida respublika bo‘yicha o‘rtacha **112,1%** ni tashkil etdi.

Elektr ta‘minoti xizmatlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan tariflarning joriy etilishi ushbu xizmat bo‘yicha INI o‘sish sur‘atida o‘z aksini topdi. 1000 kVt dan ko‘proq elektr energiyasi iste‘mol qiladigan abonentlar uchun tariflarning yuqori stavkasi joriy etildi. Hisob-kitoblarda har bir iste‘mol toifasi bo‘yicha abonentlar ulushi hisobga olindi va shuning hisobiga elektr energiyasi INI o‘rtacha **102,2%** ni tashkil etdi.

# “UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




## MAISHIY USKUNALAR





## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



“Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida joriy yilning noyabridagi qisqa muddatli INI **99,7 %** dan (otvyortka, ombir va shunga o‘xshash asboblari) **102,0 %** gacha (gilamlarni yuvish va tozalash bo‘yicha xizmatlar) oraliqda joylashdi.


noyabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan




### DORI VOŠITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI





### AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



### STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



### SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha joriy yilning noyabr oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,9 %** dan (tibbiy laboratoriyalar xizmatlari) **101,7 %** gacha (shpritslar) oraliqda joylashdi.

# “TRANSPORT” (VII) bo‘limi, % da



noyabr

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan




## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH





## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da



# “AXBOROT VA ALOQA” BO‘LIMI (VIII), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan


## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da



2023- yilning noyabrida alohida turdagi axborot va kommunikatsiya uskunalari narxlarida pasayish qayd etildi. Shunday qilib, noutbuk, kompyuter, planshet, televizorlarning oylik INI **98,3-99,3%** chegarasida bo‘ldi.

Mobil aloqa xizmatlari aksincha, o‘rtacha **3,0%** ga, simli va mobil internet xizmatlari **2,3-2,4%** ga qimmatlashdi.

# “DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

## DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




2021- y. 2022- y. 2023- y.

## BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.


## GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning noyabrida IX-bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar qisqa muddatli INI tebranishlari chegarasi **98,4 %** (A4 formatidagi qog‘oz) – **108,3 %** (konsert zallari xizmatlari)ni tashkil etdi.

# “TA’LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO’LIMI (X), % da

noyabr

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning noyabriga nisbatan

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM



100,0 100,0 99,9 100,1

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

115,2 113,2 100,9 98,6

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

113,2 101,0 98,6

2021- y. 2022- y. 2023- y.

## OLIY TA'LIM



100,0 100,0 100,0 99,7

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

109,8 100,8 101,9 100,2

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

109,8 101,9 100,5

2021- y. 2022- y. 2023- y.

## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM



101,6 100,9 101,0 100,9

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

111,2 105,1 109,0 106,3

2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

112,5 110,2 107,2


2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da

2023- yilning oktabriga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan

2022- yilning noyabriga nisbatan



Ta'lim xizmatlari bozorida nodavlat OTM xizmatlari o'rtacha darajasi Toshkent xalqaro kimyo universitetining Samarqand filialida shartnoma asosida o'qish to'lovlarning kamaytirilishi hisobiga pasaydi. O'quv kurslarida o'qitish aksincha, qimmatlashdi. Ushbu xizmat turi bo'yicha 2023- yilning noyabridagi qisqa muddatli INI **101,2 %** ga yetdi.

# “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## MEHMONXONALAR XIZMATLARI



## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da

2023- yilning oktabriga nisbatan      2022- yilning dekabriga nisbatan      2022- yilning noyabriga nisbatan



Joriy yilning noyabrida kafelardagi tayyor taomlar narxlari respublikaning barcha hududlarida **1,3-6,3 %** chegarasida, oshxonalaridagi taomlar **1,2-5,9 %** chegarasida, tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalarda **0,6-4,6 %** oralig‘ida oshdi.

Dam olish markazlari xizmati narxlari joriy yilning noyabrida Andijon va Xorazm viloyatlarida, mehmonxonalar xizmatlari Samarqand viloyatida oshdi.

# “SUG‘URTALASH VA MOLIVAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % da

noyabr

## SUG‘URTA



o‘tgan oyga nisbatan

100,0      100,0      100,0      100,0



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

100,0      100,0      100,0      100,0



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

100,0      100,0      100,0      100,0



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

## MOLIVAVIY XIZMATLAR



o‘tgan oyga nisbatan

100,0      100,1      100,2      101,3



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

106,6      100,6      108,7      105,9



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.


o‘tgan yilning noyabriga nisbatan

100,0      100,8      109,0      106,1



2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da



Moliyaviy xizmatlar orasida joriy yilning noyabr oyida bank muassasalari xizmatlari hamda banklar orqali pul o‘tkazmalari xizmatlari narxlarida o‘zgarish kuzatilib, bu ayrim banklarda milliy valyutadagi xizmatlar qiymatining oshishi hamda xorijiy valyutada belgilangan xizmatlar uchun to‘lov qiymatiga AQSH dollari kursi o‘zgarishining ta’siri bilan bog‘liq bo‘ldi.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % da

noyabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning noyabriga nisbatan



## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR



## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



## BOSHQA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning noyabridagi INI, % da

2023- yilning oktabriga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan

2022- yilning noyabriga nisbatan



Joriy yil noyabrda “Shaxsiy foydalanish uchun boshqa priborlar, buyumlar va tovarlar” guruhiga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI ko‘rsatkichi **100,2 %** dan (atir sovun) **101,7 %** gacha (ustara, ustara uchun lezviya) chegarada bo‘ldi.

Sartaroshxonalar xizmatlari bo‘yicha qisqa muddatli INI 2023- yilning noyabrda **101,2 %** ni, shaxsiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xizmatlari **102,8 %** ni tashkil etdi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta‘sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

## Oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta‘siri, f.d.

# +1,13



Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlarining 2023- yil noyabridagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur‘atiga ta‘siri yuqori bo‘ldi. Ularning hissasiga umumiy ta‘sir darajasining **42%** dan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

“Transport” bo‘limida narxlarning o‘zgarishi ham 2023- yilning noyabridagi yig‘ma INI o‘sish sur‘atiga salmoqli (**0,21 f.d.**) ta‘sir ko‘rsatdi.

2023- yilning yanvar-noyabridagi yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.

**+7,43**



2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘shish sur‘atining **41 %** idan ortig‘i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari bilan ta‘minlandi. Ularning ta’siri **7,43** f.d. umumiy o‘shish sur‘atida **3,10 f.d.** ni tashkil etadi.


“Transport” va “Sog‘liqni saqlash” bo‘limlaridagi narx o‘zga-

rishlari ham salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu bo‘limlar 2022- yil dekabriga nisbatan yig‘ma INI jami **1,69** f.d. o‘shish sur‘atini yoki umumiy ta’sir darajasining **22,7%** ini ta‘minladi.

“Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi va buning ta’sirida yig‘ma INI **0,03 f.d.** pasaydi.

2023- yil noyabrdagi yillik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.

**+8,76**



2022- yilning noyabriga nisbatan yig‘ma INI umumiy o‘shish sur‘atining **43,6** % i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Ularning ta’siri **3,82 f.d.** ni tashkil etdi.

Transport sohasida narxlar oshishining umumiy ta’sir darajasidagi ulushi **14,9** % ni,

sog‘liqni saqlash sohasida **8,0** % ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-noyabridagi holat kabi aloqa xizmatlari narxlarining pasayishi yillik INI tutib turuvchi omil bo‘lib xizmat qildi va ko‘rsatkich pasayishida **0,02 f.d.** aks etdi.

